

## MADANIY YONDASHUV ASOSIDA ZAMONAVIY TA'LIMNING PEDAGOGIK MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH

**Xalilova Mardona Hasanjon qizi**

Namangan davlat chet tillari instituti Jahon tillari fakulteti talabasi

Tel. +998 (97) 466 13 03

E-mail: [xalilovamardona024@gmail.com](mailto:xalilovamardona024@gmail.com)

### *Annotatsiya:*

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv dasturlarni takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash hamda pedagoglar tayyorlashning muammolari haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar:*** madaniyat, fikr, Ijtimoiy-ilmiy, pedagogik, fan- madaniyat, ma'naviy-axloqiy, o'quv-tarbiya, texnologiya.

Avvalambor, biz maqolaning asosiy ma'nosini anglab olishimiz kerak. Zamonaviy ta'lim nima? Uning bizga foyda, zarari bormi? Biz uni qay darajada egallashimiz kerak? Bizga o'zi pedagogika kerakmi yoki bizda pedagogik qobiliyat shakllanganmi? Shu savollarga to'liq javob berish orqali biz bugungi mavzumizni toliq yoritib berishimiz mumkin. Bu mavzu hozirgi kunda juda dolzarb mavzulardan biridir. Biz malakali pedagoglarni qayerdan topishimiz mumkin? Yoki pedagoglikka tayyorlovchi muassasalar deb qayerlarni korsatishimiz mumkin? Albatta bolalar bog'chasi, maktab hamda oliy ta'limni yaqqol misol qilib keltirolamiz. Bolalar bog'chasi - maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni tarbiyalovchi, hayotga bo'lgan ilk ko'nikmalarni shakllantiruvchi ta'lim muassasasidir. Maktabda esa bolalar o'qituvchi rahbarligida dars mashg'ulotlari olib boradi, asosiy hayotga tayyorlov ham aynan shu maktabdan boshlanadi. Bog'chada bolalar tarbiyalanadi dedik, maktabda esa tarbiya bilan birgalikda o'quv ishlari ham asosiy o'rinda turadi. Shuning uchun ham maktab — o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi deb yuritiladi. Oliy ta'lim muassasalarida esa malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak mutaxassislar o'z kasbiga mos nazariy bilimlarni mustaqil, ijodiy ravishda hayotga tadbiiq etish yo'llarini o'rganadi, kasbga mos malakalarni egallaydi, bolalar rivojlanishini kuzatadi, tahlil qiladi, bilim darajasini baholash bilan birga bolalarga turli faoliyatlarni tashkil etish, ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni o'rganadilar. Bularning barchasi zamonaviy ta'lim tizimini tashkil qiladi.

Ta'lim tizimi haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'ldik. Ta'lim tizimi qachalik yaxshilangan sari undagi muammolar ham ham ko'zga ko'rinib qolyabdi. Avvallari ta'limdagi asosiy muammo kitoblarning yetishmasligi derdik. Davlatimiz barcha o'quvchilarni fan va boshqa turdagi kitoblar bilan ta'minlab qo'ydi, lekin bu bilan muammo yechildimi? Yo'q. Davlatimizning boshqa davlatlardan

ortda qolishiga sabab ta'limda zamonaviy o'quv dasturlarining yetishmasligi, darsxonalarda yetarli jihozlar yo'qligi deb topildi. Va har bir maktab, ayniqsa oliy ta'lim muassasalari zamonaviy, chet el ta'lim tizimiga asoslangan jihozlar bilan ta'minlandi, lekin bu bilan pedagogik muammolarni to'liq hal eta oldikmi? Albatta yo'q. Oxirgi izlanishlar davomida barcha muammo pedagoglarning o'zida deb topildi va pedagoglarni chet ellarda malakasini oshirishga yuborildi, ishga kirish uchun turli sertifikat va toifalarga ega bo'lish kerak degan talablar qo'yildi. Ammo bu bilan ham barcha bolani o'qishga birdek qiziqitrolmadik. Bu bilan ham muammoni bartaraf etolmadik. Demak, biz yana qanday muammolarni keltirishimiz mumkin. Balki barcha muammo o'quv muassasalarining o'zidadir.

#### Maktab muhiti.

Maktablarda ilmiy muhitning yo'qligi malakali kadrlar yetishmovchiligiga va malakasiz kadrlarning ko'pligiga olib keladi. Maktablarda o'qituvchilar o'z ustida ishlamay qo'ygan. Ko'p miqdordagi iqtidorli insonlar yo maktabni tark etadi yo iqtidori ochilmay qolib ketadi. Amaldagi ta'lim tizimimizda o'qituvchining darsi qanchalik sifatli ekanligini baholashning samarali mezonlari yaratilmagan. O'qituvchilar tashkiliy masalalar bilan o'ralashib qolgan. Qanchalik xunuk eshitilmasin, tan olishga majburmiz: dars ikkinchi darajali narsaga aylanib qolgan.

Yana bir ko'zga ko'rinarli muammolardan biri - byurokratiya. Mazmunga emas, shaklga qaraladi. Pedyuklamalar, plakatlar, ko'rgazmali qurollar. Ro'yxatni ancha davom ettirish mumkin. Sir emas, ayrim hollarda (doim emas) komissiya a'zolari borgan joyida hammaga tanbeh berib, obro' orttirishga intiladi. Maqsad kamchilikni bartaraf etish emas, aybdorlarni jazolash bo'lib qoladi. Ba'zida mutlaqo mantiqqa zid gaplar ham bo'ladi.

Ta'lim sifatsizligi haqida gapirganda, negadir hamma pediyuklama-yu hujjat ishlarini, befoyda tashkiliy ishlarga o'qituvchilarninig jalb etilishini bosh aybdorlar qilib ko'rsatyapmiz.

Aslida ham shundaymi? Pedagogik yuklamani yo'q qilib, tadbirlar qilmay qo'ysa, hammasi iziga tushadimi? Yo'q. Menimcha, yo'q. Sifatsiz ta'lim ildizlari ancha chuqurroq. O'zi muammoning ildizi qayerda?

Bolalar maktab hamda kollejga majburligidan boradi. Talabalarning universitetga borishdan maqsadi faqat diplomli bo'lish. Iloji bo'lsa, umuman o'qishga bormay, baho olib yursa. O'quvchilarda o'rganishga qiziqish yo'q. Borlarida ham katta sinfga o'tgan sari qiziqish kamayib boraveradi. Bunga asosiy sabab nimada nima uchun o'quvchilar bu darajada atrofga, ta'limga bee'tibor bo'lib ketyabdi. Mening buning sababini zamonaviy texnologiyalarda deb topdim. Zamonaviy texnologiyalarni biz rivojlanish, ta'lim sifatini yaxshilash uchun olib keldik, ammo undan qay darajada foydalanish o'quvchilarning o'ziga tashlab qoyilyapti. Meni doim qinaydigan savol: nega ota onalar yosh bolalarini yupatish uchun qo'lga telefon beryapti? Nega ikkinchi, uchinchi sinf o'quvchisining qo'lida eng oxirgi rusumdagi telefon? Nega maktab yoshidagi bolalarga kitob olib berish o'rniga komputer olib beryapmiz? Nega, nega biz jar yoqasida turgan yosh avlodni indamay kuzatyapmiz. Doim biz o'qituvchilarni, ta'lim dasturlarini ayblayveramiz, lekin bolalarni aybdor deb topmaymiz? Qadimgi davrlarda o'qish, ta'lim olish qanchalar qiyin bo'lgan davrlarda ota-bobolarimiz o'qidi, o'rgandi, izlandi. Xatto qur'on kitoblarni yodladi. O'ylab ko'ring, bu oson ish emas. Lekin ular bu ishlarni qanday qildi, qanday qilib bu darajaga erishdi, u paytlarda o'rgatadigan o'qituvchilar, yetarli kitoblar, sharoitlar bo'lmaganku? Albatta, u paytda sanagan narsalarimiz bilan birgalikda bizning butun vaqtimizni o'g'irlyotgan telefonlar ham bo'lmagan. Biz yaxshilikka xizmat qilyapti degan bu telefonlarimiz faqat va faqat zararimizga ishlayotganini umuman sezmayapmiz ham. O'smir yoshdagi bolalarning ong-u vujudini egallab olgan turli mobil o'yinlar, ularning psixologiyasini yemirib

boryabdi. Bir marta o'yinda yutqazgan bola yutguncha qayta qayta o'ynaydi. U shunchalar o'yinning ichiga kirib ketadiki, atrofidagi birorta gap - so'zlarni eshitmay qoladi. Uning hayoli faqat o'yinlar, robotlar bilan band bo'ladi, bu uning hayotga bo'lgan qiziqishini yo'qotib boradi. Hayotga qiziqishi yo'q boladan biz qanday qilib yetuk, ilmi olim yetishib chiqadi deb ayta olamiz axir. Telefon o'yinlarida odamlarni tab tortmay o'ldirayotgan bolalar qanday qilib o'qituvchini, ota - onani hurmat qiladi. Hech kim hurmat qilmaydigan, o'qishga qiziqishi yo'q bolani darslarga jalb qila olamizmi? Albatta yo'q.

Bu holatlarning barchasiga ota-onalarning o'zi sababchi bo'lib qolyabdi. Ularning o'zlarida ta'limga nisbatan bo'lgan hurmat yo'q. Shu bois ham, ishning sifatini oshirishga, demakki, eng zo'r kadrlarni jalb qilishga harakat qilinmaydi. O'z-o'zidan ota-onalar farzandining bilimli, saviyasi baland bo'lishiga ko'pam intilishavermaydi. Ta'limdagi eng katta muammo aynan mana shu. Agar aholida ta'limga ehtiyoj yuqori darajada bo'lganida, ular bilimni izlab topishardi. Ular bilimli o'qituvchilarni qadrlagan bo'lishardi. Ular baho olishga emas, bilim olishga qiziqqan bo'lishardi. Ular o'qituvchidan yaxshi darsni talab qilib olgan va shunga yarasha haq ham to'lashga tayyor bo'lishardi.

Bu muammolarni bartaraf etishning birdan bir yo'li barcha birgalikda harakat qilishi. Bunda o'qituvchidan talab:

1. O'quvchilarni qiziqtirish;
2. To'g'ri yo'nalish berish;
3. Fikrni tarbiyalash;
4. Motivatsiya uyg'otish.

Ota - onalardan talab esa, farzandiga doim e'tiborli bo'lish, o'qishi, yurish turishini nazoratga olish, iloji bo'lsa turli xil kitoblar sovg'a qilish. Farzandi bilan rasmiy shaxslarday emas xuddi do'stday munosabatda bo'lib undagi muammo - yu kamchiliklarni birgalikda hal qilish. Vanihoyat yosh avloddan talab bu - faqat va faqat ta'lim olish vaqtini behudaga sarflamaslik, o'zidan katta barchani birdek hurmat qilish. Agar biz shunday qilib qo'lni qo'lga berib birgalikda harakat qilsak, bu muammolarni barchasini osonlik bilan hal eta olamiz.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
2. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. *Молодий вчений*, (1), 290-294.
3. Meyliev, O., & Gofurova, K. (2023). PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF A "GREEN ECONOMY" IN UZBEKISTAN. *Science and innovation*, 2(A8), 117-122.
4. Omanbaevna, O. M. (2020). MYTHS AND MODERN UZBEK STORIES (some commentary on the story of Nazar Eshankul's "The tune of a flute" myth-story). *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(12), 49-53.

5. Otajanova, M. (2022). ANALYSIS OF MYTHOLOGYSMS IN MODERN UZBEK PROSE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 11(5), 16-27.
6. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.
7. Turdievna, K. Z., & Tursunaliyeva, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(5), 63-67.
8. Tursunaliyeva, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).
9. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
10. Turdievna, X. Z. (2021). ROLE OF ALISHER NAVOI IN THE DEVELOPMENT OF MODERN LINGUISTICS. 국제언어문학, (49), 85-106.
11. Сабирова, Н. Э. (2017). Поэтические символы: становление и эволюция. Молодой ученый, (3), 684-686.
12. Холманова, З. Т. (2021). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ТАРАҚҚИЎТИДАГИ ЎРНИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).
13. Bilveren, T. (2015). BABÜRNÂMEDEKİ BAZI KELİMELERİN TARİHİ VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ . Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi , 5 (9) , 114-118 . Retrieved from <https://dergipark.org.tr/en/pub/kilissbd/issue/45249/566814>
14. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI.
15. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVİZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
16. <http://arm.sies.uz>
17. <http://library.navoiy>